



SHIRIN QALAMPIR NAVLARINI YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

X. Xonqulov

Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali, qishloq xo'jalik fanlari falsafa doktori, dotsent

H. Abdisatorov

Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali magistranti

Annotatsiya: *Shirin qalampirga bo'lgan talabni to'la qondirish maqsadida qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun ushbu ekinni takroriy ekin sifatida yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish, bunda eng maqbul ekish muddati, o'simlikning oziqlanish maydonini aniqlash, tovarbop va serhosil nav va duragaylarni tanlash borasidagi tadqiqotlar dolzarb bo'lib hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *Shirin qalampir, takroriy ekin, serhosil nav, duragaylar, hosildorlik, sabzavot ekinlari.*

Kirish. Bugungi kunda dunyo bo'yicha eng ommabop va talabgor sabzavot ekinlaridan bo'lgan qalampir yetishtirilayotgan maydonlar 1,933 mln. gektarni tashkil etib, o'rtacha hosildorlik gektaridan 16,1 tonnani, yalpi hosil 31,131 mln tonnani tashkil etadi. Bir necha yillardan buyon Xitoy (15,823 mln.t), Meksika (2,294 mln.t), Turkiya (2,159 mln.t), Indoneziya (1,726 mln.t) davlatlari qalampir yetishtirish bo'yicha yetakchilik qilmoqda.

Respublikamizda sabzavot ekinlariga bo'lgan talab kuchaymoqda, shuning uchun sabzavot, kartoshka, uzum va poliz mahsulotlarini yetishtirishni 2,3 marta oshirish rejalashirilgan.

Hozirgi kunda jaxonning mo'tadil tabiiy-iqlim sharoitiga ega davlatlarida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, mavjud sug'oriladigan maydonlardan samarali foydalangan holda mintaqa iqlimidan kelib chiqib, shirin qalampir yetishtirishda samarali agrotexnologiyalarni qo'llab yetishtirish orqali ushbu ekin hosildorligi va yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Dunyoda mo'tadil iqlim sharoitiga ega, uzun iliq kunli Janubiy Yevropa, Markaziy va Janubiy Osiyo, Janubiy Amerika, Avstraliya mintaqalarida joylashgan davlatlari qishloq xo'jaligida takroriy sabzavot ekinlarini ekish ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Shirin qalampirga bo'lgan talabni to'la qondirish maqsadida qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun ushbu ekinni takroriy ekin sifatida yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish, bunda eng maqbul ekish muddati, o'simlikning oziqlanish maydonini aniqlash, tovarbop va serhosil nav va duragaylarni tanlash borasidagi tadqiqotlar dolzarb bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari. Dala tajribalarini qo'yish, hisoblashlar va kuzatishlar umumqabul qilingan uslublarda (Metodika polevix i vegetasiionnix opitov s xlopchatnikom v usloviyax orosheniya. Tashkent, 1973, 1981; Dala tajribalarini o'tkazish uslublari. Toshkent, 2007) amalga oshiriladi. Barcha agrotexnologik tadbirlar O'zbekiton Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi va O'zPITI (PCUEAITI) tavsiyalari asosida bajariladi. Olingan natijalarga matematik-statistik



ishlov berish B.A.Dospexov (1985) bo'yicha amalga oshirildi.

Olingan natijalar. Shirin qalampir navlarining turli ekish muddatlarida 2 ta navni o'stirishning iqtisodiy samaradorligini hisoblash umumqabul qilingan uslubga muvofiq olib borildi. Bundan tashqari, O'zbekiston Qishloq va Suv xo'jaligi vazirligi tasdiqlagan me'yoriy xujjatlar (2020) va xo'jaliklarning me'yoriy va haqiqiy ma'lumotlarini asos qilib oldik.

Shirin qalampir navlarining turli ekish muddatlarida yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini hisoblashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanildi:

- hosildorlik (t\ga);
- bir gektar maydonga qilingan jami xarajatlar summasi (ming so'm);
- bir sentner shirin qalampirning tannarxi (so'm);
- bir kg shirin qalampirning bahosi (so'm);
- bir gektardan olingan sof daromad (ming so'm);
- rentabellik darajasi (%) va boshqalar.

Ochiq maydonda shirin qalampir yetishtirish uning iqtisodiy samaradorligining to'g'ri hisoblanishi eng avvalo bir gektarga qilingan jami xarajatlar summasini to'g'ri aniqlashga bog'liq.

Samarqand viloyati sharoitida ochiq maydonlarda 2021-2022 yillar mobaynida shirin qalampir yetishtirilgan har bir gektar maydonga qilingan harajatlar 26 000 000 so'mdan 27 650 000 so'mgachani tashkil etdi. Ushbu yillar mobaynida yetishtirilgan bir kg shirin qalampirning tovar hosilini sotish bahosi 1500 so'mni tashkil etdi.

Shirin qalampir navlarining himoyalangan yerda yetishtirilgan ko'chatidan ochiq dalada o'stirishda bir gektargaga qilingan jami xarajatlar summasini hisobladik.

Eng arzon tannarxli Dar tashkenta, Lastochka tegishli ravishda (bir kg shirin qalampir 71,8 – 94,5 ming so'm) va eng yuqori sof daromad (bir gektardan 30100,0 – 15160,0 ming so'm) hamda rentabellik darajasi (108,8 – 58,7 %) tashkil etdi.

Turli ekish muddatlarida shirin qalampir navlarini yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi (2021- 2022 yillar)

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Zarafshon vodiysi sharoitida sug'oriladigan yerlarda Shirin qalampirning Dar tashkenta va Lastochka navlarini maqbul muddatda ekib o'stirish yuqori va sifatli hosil olishni hamda rentabellikni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Butun Jaxon FAO tashkilotining 2017-2018 yilgi ma'lumotlari.
2. O'zbekiston Respublikasi xududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari Davlat reyestri. 2020. – b. 33.
3. Azimov B.J., Azimov B.B. Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o'tkazish metodikasi. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2002. –B.181-185.
4. Ostonaqulov T.E., Zuyev V.I., Qodirxo'jayev O.Q. Kitob. Mevachilik va Sabzavotchilik, Toshkent 2018. b-417-419.